



“TASDIQLAYMAN”
Toshkent shahridagi Turin politexnika
universiteti rektori

O.A.To'ychiyev

“M” maʼlifi 2024 y

**Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti “Talabalar turar joyi” hududida
Kovorking zonasini yaratilishi va volleybol maydoni qurilishi uchun
TEXNIK TOPSHIRIQ**

Nº	Asosiy maʼlumotlar va talablar	Mazmuni
1	Buyurtmachi	Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti. 100095. Toshkent sh, Olmazor tumani, Kichik halqa yoʼli 17-uy. www.info@polito.uz Tel/faks: 71-246-70-82
2	Loyihani amalga oshirish uchun asos	Universitet kengashi qarori
3	Loyihani moliyalashtirish manbaasi	Universitet mablagʼlari
4	Obʼyektining taxminiy qiymati	455 000 000 (toʼrt yuz ellik besh million) soʻm
5	Loyiha tashkiloti	MChJ “ENGINEERING MIR-ROSSO”
6	Qurilish ishlari boshlanishi va tugash muddatlari	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 1 oy
7	Qurilish ishlarini bajarishdagi xavfsizlik talablari	<p>Qurilish ishlarini bajarishdagi barcha meʼyoriy normalarga amal qilinishini taʼminlash. Ish jarayonida texnika xavfsizligi, yongʼin xavfsizligi, mehnat xavfsizligi va atrof-muhit muhofazasini taʼminlash bosh pudratchi tashkilot zimmasiga yuklatiladi hamda javobgar shaxs buyruq orqali belgilanadi va buyruq nusxasi buyurtmachiga taqdim etiladi.</p> <p>Bosh pudratchi shartnoma imzolangunga qadar qurilish ishlari davomida sodir boʼlishi mumkin boʼlgan baxtsiz yoki favqulodda holatlardan sugʼurtalanganligi toʼgʼrisida shartnoma nusxasini taqdim etishi shart.</p> <p>Bosh pudratchi qurilish ishlari boshlangunga qadar mehnat muhofazasi, favqulodda holat yuz berganda amalga oshiriladigan ishlar bajarilishi boʼyicha dastur ishlab chiqishi va uni buyurtmachiga taqdim etishi shart.</p>
8	Obʼyektning murakkablik toifasi	1- toifa
9	Qurilish montaj ishlarining nazorati va yakunlangan ishlarni topshirish boʼyicha talablar	<p>Bosh pudratchi tashkilot rahbarlari:</p> <ul style="list-style-type: none">- Qoʼllanilayotgan barcha qurilish materillarini sifat nazoratidan oʼtkazish;- Bajarilayotgan ishlar sifatini bevosita qurilish maydonchasidan nazorat qilishni yoʼlga qoʼyish;- Qurilish montaj ishlarini texnologik jihatidan toʼgʼri tashkil etish;- Yakunlangan ishlar dalolatnomasini oʼz vaqtida rasmiylashtirish;- Bajarilagan ishlar boʼyicha ijro hujjatlarini oʼz vaqtida toʼldirib borish;- Qurilish montaj ishlarini oʼzaro tasdiqlangan grafik asosida bajarilishini taʼminlash;- Loyiha smeta hujjatlarida koʼrsatilmagan ishlar bajarilganda dalolatnomasi tuzish va ish hajmi alohida hisoblash.

		Bajarilgan ishlarni qabul qilish buyurtmachi tasdiqlagan komissiya tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va KMK, SHNK normalari asosida amalga oshiriladi va zaruriy barcha dalolatnomalar orqali tasdiqlanadi.
10	Qurilish ishlarni moliyalashtirish	<p>Shartnoma tuzilgan sanadan so'ng shartnomada ko'rsatilgan muddatda 30% miqdorda avans to'lab beriladi. 65% to'lov bajarilgan ishlarning miqdoriga mos ravishda, bajarilgan ishlar bo'yicha tuzilgan dalolatnomalar to'liq imzolangan holatda to'lab boriladi. Qolgan 5% to'lov ob'ektning ekspluatatsiya kafolat muddati tugagandan so'ng to'lab beriladi.</p>
11	Ob'yektni topshirish muddati va ishlarni sifatlari bajarishga bo'lgan talablar	<p>Barcha qurilish montaj ishlari loyiha smeta hujjatlari, qurilish normalari va qurilish ishlarini olib borish qoidalariiga qat'iy amal qilgan holda bajariladi.</p> <p>Ob'yektning texnologik kartasi Bosh pudratchi tomonidan tuziladi va unga qurilish davomida amal qilinishi ta'minlanadi. Bosh pudratchi tomonidan qurilish montaj ishlarini bajarish jarayonida ob'yektga moddiy zarar yetkazilgan taqdirda, Buyurtmachi va Bosh pudratchi o'rtasida yetkazilgan zararni qoplash to'g'risida 3 (uch) ish kuni ichida dalolatnoma tuziladi.</p>

Bosh muhandis

I.Eshmuratov